GLOBALLASHUVNING SALBIY JARAYONLARIGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY MA'NAVIYAT: MUAMMO VA YECHIM

Toshmurodova Nigora Najmiddinovna
Samarqand viloyati Paxtachi tuman 2-son kasb hunar maktabi YOBIBDO'

Annotatsiya

Maqolada jahonda yuz berayotgan globallashuv va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurasha oladigan milliy ma'naviyat va milliy mafkuraning o'ziga xos tomonlari tahlil qilingan bo'lib, bu borada millat va millat yoshlarini bugungi global bo'hrondan qanday asrash yo'llari haqida taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, strategiya, taktika, texnologiya, milliy chegara, axborotlashuv.

Аннотация

В статье анализируются уникальные аспекты национальной духовности и национальной идеологии, способные бороться с глобализацией и ее негативными последствиями, а также предлагаются предложения и рекомендации о том, как защитить нацию и ее молодежь от современного глобального кризиса.

Ключевые слова: глобализация, стратегия, тактика, технология, государственная граница, информация.

Annotation

The article analyzes the unique aspects of national spirituality and national ideology that can fight globalization and its negative consequences, as well as offers suggestions and recommendations on how to protect the nation and its youth from the current global crisis.

Key words: globalization, strategy, tactics, technology, state border, information.

Jahonda XXI asr boshlariga kelib mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir doirasi shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayonlardan to'la himoyalangan birorta ham davlat yo'q, deb aytish mumkin. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarish texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarida tub o'zgarishlar yuz berishi jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, XIX asrda bug' mashinalari, temir yo'l transporti va paraxodlarning ixtiro etilishi tovar ishlab chiqarish sur'atining otrishiga keng yo'l ochgan edi. XX asrga kelib esa elektr energiyasidan foydalanish radio, telefon, avto va havo transportining vujudga kelishi sanoat sohasidagi inqilobga sabab bo'lgan bo'lsa, bugungi shiddatli taraqqiyot zamirida ham shunga o'xshash omillar mujassam ekani shubhasiz.

Bugungi kunda "globallashuv" deb atalayotgan ushbu jarayon turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlichadir. Bu hol dunyo mamlaktlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va o'z davlati miqyosida qanday siyosat olib borayotgani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning hususiyatlarini o'rganish lozim. Bu xodisani chuqurroq o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartira olish mumkin emas. Globallashuv shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik, nafaqat mamlakat ma'naviyati va madaniyati balki, iqtisodiyotiga ham katta salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

"Globallashuv" atamasi dastlab amarikalik olim T.Levitning 1983 yilda "Garvard biznes rev'yu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan bo'lib, muallif yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman maxsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday atagan edi.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, hususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilishimiz, shu orqali xalqimizga, ayniqsa unib-o'sib kelayotgan yosh avlodlarga to'g'ri yo'l tanlashi uchun imkoniyatlar yaritishimiz lozim. Globallashuv – insonning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat boshidagi yana bir sinov. Tarixiy taraqqiyot davomida yaxlit jahon turli iqlim va mintaqalarga, qit'a va mamlakatlarga ajraldi. Lekin, XXI asrga kelib chegara va xududlarni, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib borayotgan globallashuv jarayoni dunyo ahlini o'yga toldirmoqda, bu haqda yer yuzining turli burchaklarida rang-barang fikrlar bildirilmoqda. Shu o'rinda globallashuvga qisqacha ta'rif bermoqchi bo'lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi deyish mumkin. Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga ta'rif beradi. Ya'ni, globallashuv;

- muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- milliy chegaralarning "yuvilib ketishi" jarayoni.

B.Bandi ra'rifida keltirilga globallashuv jarayonlarning har uchalasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin, ammo jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatar ekanmiz, ularining har uchovi ham unda mavjud ekanin ko'ramiz. Globallashuv — bu avvalo hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olil kerak — bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryapdiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, tabiiy ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi — tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Hayot haqiqati shuni ko'rsatmoqdiki, dunyoda hamisha ezgulik va yovuzlik, taraqqiyot va tanazzul o'rtasida doimo kurash davom etib kelmoqda. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ezgulik va yovuzlik maqsadida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz. Globallashuvning mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi M.Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki, uyimga toza

havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”. Buyuk faylasufning bu gaplarida qanchalik haqiqat borligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jixati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam albatta, kuzatishi muqarrar.

Mustaqillik davrida globallashuvning milliy ma’naviyatimizga o‘tkazayotgan ta’sir miqyosi ortib borayotganini inkon etib bo‘lmaydi. Mamlakatimizda har bir fuquroning atrofda yuz berayotgan salbiy voqea-hodisalarga, tahdidlarga nisbatan ogohlikni, hushyorlikni kuchaytirish, kelajak taraqqiyotimiz uchun ahamiyatlidir. Bugun e’tibordan chetda qolgan kichik bir salbiy hodisa, ertaga ulkan, yechimini topish mumkin bo‘lmagan muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin.

Buyuk alloma, mutafakkir Abu Nasr Farobiy ko‘rsatib o‘tganidek: “Insonlik mohiyati haqiqiy baxt-saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o‘zining oliy g‘oyasi va istagiga aylantirib, bu yo‘lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt-saodatga erishadi”. Shunday ekan bugungi kunda bizning asosiy maqsadimiz Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ekan, albatta, maqsadimizni amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan va to‘sqinlik qiladigan kuchlar mavjud bo‘ladi. Lekin, bizning kuch va imkoniyatlarimiz, ishlarimiz samarasi bunday razil kuchlardan ustun va samarali bo‘lishi kerak. Buning uchun biz bir tanu-bir jon bo‘lib, bir yoqadan bosh chiqarib bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solishimiz, ularni ro‘yobga chiqarish yo‘lida butun borlig‘ini bag‘ishlashi, kerak bo‘lsa, jonini fido qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkaev A. Globallashuv: axborot xuruji va ommaviy madaniyat // «Tafakkur». – Toshkent. 2008. №4, -B.10.

2. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. // “Tafakkur”.-T.: 2006. – B.8.

3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 1993. –B. 188.

WORDLY KNOWLEDGE